

**SAVOD O'RGATISH DARSLARIDA YOZUVGA O'RGATISH
USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI*****Baxriddinova Yulduz Abror qizi****O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi****Tojiyeva Xolida Baxtiyorovna****Ilmiy rahbar*

Annotatsiya: Ushbu maqolada, savod o'rgatish darslarida yozuvga o'rgatish usullaridan foydalanishning ahamiyati, o'quvchilar duch keladigan muammolar va ularning yechimlari tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: Yozuv, ko'nikma, usul, Genetik usul, Chiziqli usul, Ritmik usul, muammo, yechim, bilim, husnixat.

Har bir mamlakatning ilmiy salohiyati, uning ta'lim sohasidagi erishilayotgan muvaffaqiyatlari bilan o'lchanadi. Yurtning ilg'or davlatlar qatorida bo'lishi hamda yuksak taraqqiy etishi uchun ta'lim va tarbiyaning o'rni beqiyosdir. Ta'lim jamiyatning har bir sohasiga chuqur ta'sir ko'rsatib, u ijtimoiy tenglikni taminlash, iqtisodiyotni rivojlantirish, milliy qadryatlarni saqlash va yangi avlodlarga yetkazish, demokratik jamiyatni shakllantirish, inson kapitalini rivojlantirish va millat kelajagini ta'minlovchi asosiy vosita hisoblanadi. Hozirgi texnologiyalar shiddat bilan rivojlangan davrda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan ishlar hamda ularni ado etadigan shaxslarga yuksak talablarni qo'yadi. Har bir shaxs qaysi soha vakili bo'lishidan qat'iy nazar, o'z kasbining mohir ustasi bo'lishi zamon talablaridan biridir.

Avvalo, ta'limning boshlang'ich nuqtasi oiladan va maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlansa, tizimli va rasmiy ravishda maktabda davom etadi. Maktab bosqichi bolaning intellektual, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishining poydevorini shakllantiradi. Bilimning poydevorini yaratish boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'qish va yozishni mukammal o'rgatishdan iborat. Bu jarayonni amalga oshirish dastlab bolajonlar maktabga ilk qadam qo'ygan kundan boshlanadi. O'quvchilarga savod



o'rgatish darslari tashkil qilinib, bu jarayon to'rt oy davom etadi. Savod o'rgatish ikki davrga bo'linib uning dastlabki qismi yani alifbogacha tayyorgarlik davrida o'quvchilarni maktab, sinf, tartib-intizom qoidalari bilan tanishtiriladi hamda nutq o'stiruvchi mashqlar bilan shug'ullantiriladi. Shuningdek unli tovushlar va ularning xususiyatlari amaliy mashqlar yordamida o'rgatiladi. Alifbo davrida esa o'quvchilar barcha unli va undosh harflar bilan tanishtiriladi. Savod o'rgatishda o'qish va yozish darslari birgalikda olib boriladi. O'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarga tovush va harflarni tanishtirish, ularning to'g'ri talaffuzini o'rgatish hamda ularning lug'at boyligini oshirish va nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo'lsa, yozuvga o'rgatish darslari o'qish bilan parallel olib borilib, o'quvchilarda yozuv malakalarini shakllantirish, yozma nutqini rivojlantirishdir. Yozuv biz qaysi soha vakili bo'lishimizdan qat'iy nazar faoliyatimizda bajaradigan ishlarimizning asosiy vositasi hisoblanib, fikrimizni to'g'ri va mantiqan ifodalashga, yangi g'oyalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Shuning uchun ham bu jarayon muhimligi bilan birgalikda mashaqqatli hisoblanib o'qituvchidan zamonaviy usullarni bilish, o'qitish metodlarini qo'llay olish, chuqur bilimga ega bo'lish hamda sabrlilik va e'tiborni talab qiladi. O'quvchilarni yozuvga o'rgatishda quyidagi umumiy yondashuvlar va usullarni ko'rib chiqamiz.

Dastlab bizda shunday savol paydo bo'ladi. Hozirgi zamonaviy davrda, qog'ozga yozishdan ko'ra elektron tizimdan foydalanayotgan vaqtda, yozuvni o'rganish biz uchun nimaga kerak? Shu sababli yozuvga o'rgatishning asosiy ahamiyatlarini ko'rib chiqamiz.

Har bir davlatning ilmiy salohiyati xalqining savodli bo'lishi bilan belgilanadi. O'qish va yozish savodxonligi birdek ahamiyatli. Yozuvga o'rgatish ta'lim jarayonining muhim qismidir, chunki u o'quvchilarning fikrlash, mantiqiy izchillik, nutq madaniyati va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Yozma nutq o'quvchilarga o'z fikrlarini aniq va ravon ifodalashni o'rgatadi. Bu esa nafaqat ta'limda, balki kundalik hayotda ham muloqot qilishni osonlashtiradi. Yozish jarayonida o'quvchilar o'z fikrlarini aniq tartibda ifodalash, dalillash va asoslashga harakat qilishadi. Bu ularning tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Insho, esse va



badiiy matnlar yozish ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilar o'z tasavvurlarini, his-tuyg'ularini va hayotiy tajribalarini yozuv orqali ifodalashga o'rganishadi. Yozuv jarayoni o'quvchilarning xotirasini mustahkamlaydi, diqqatni jamlashga o'rgatadi va matn bilan ishlash malakasini oshiradi. Yozuv orqali o'quvchilar mustaqil izlanish, o'rganilgan ma'lumotlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishadi. Yaxshi yozilgan matnlar nafaqat mazmun, balki shakl jihatidan ham chiroyli bo'lishi kerak. Bu esa o'quvchilarning estetik didini oshirishga yordam beradi. O'quvchilar maktabda, oliy o'quv yurtlarida va keyinchalik kasbiy faoliyatida yozish malakalaridan keng foydalanadilar. Ilmiy ishlar yozish, hujjatlar tayyorlash va kasbiy yozishmalar yuritish uchun yozuvga o'rgatish juda muhimdir. Shuning uchun yozuvga o'rgatish nafaqat lingvistik ko'nikma, balki shaxsiy va kasbiy rivojlanishning ham muhim qismidir.

Savod o'rgatish darslarida yozuvga o'rgatishning turli usullaridan foydalaniladi. Bular quyidagilardan iborat:

1.Genetik usul. Bunda harflardagi elementlarning oson-qiyinligi, bir elementning qaysi harflarda mavjudligi – takrorlanishi hisobga olinadi. Bu usulning afzalligi shundan iboratki, o'quvchi harfni alifbodagi tartibda emas, balki uning yozilishidagi o'xshashliklarga asoslanib yozadi.

2.Chiziqli usul. Har qanday harfning yozilishini o'rganish uchun o'quvchi harfning barcha belgilarini, harfdagi alohida elementlarning joylashish o'rnini, hajmini bilishi kerak. O'quvchining harfni yozuv chiziqlari orasida to'g'ri joylashtirishi uchun daftar varag'iga yotiq chiziqlar chiziladi, daftarda o'ziga xos setka paydo bo'ladi. O'quvchilar yozuv setkalari ichiga har bir harfni joylashtirib yozadi. Qatorning yo'nalishini ko'rsatib turuvchi chiziq va kataklar harf elementlarini joylashtirishni anchagina osonlashtiradi. Shuning uchun ham chiziqli usul yozuvga o'rgatishning asosiy usullaridan hisoblanadi.

3. Namunaga qarab yozish usuli. Husnixatga o'rgatish usullaridan biri harflarning shakli namunasini ko'rsatish va yozdirishdir. Har bir harfning namunasi doskada barcha o'quvchilarning diqqatini jalb qilgan holda yoki ayrim o'quvchilarga daftarda alohida-alohida ko'rsatiladi.



4. **Namunaga qarab ko'chirish usuli.** Bu usulda o'quvchilar harflarni "Husnixat daftari" yoki "Yozuv daftari"dagi namunalarga qarab ko'chirib yozadilar. Tayyor holdagi nuqtalar bilan ifodalangan harflar ustidan qo'lni yurg'izib mashq qilish mexanik jarayon bo'lib, o'quvchilar bu topshiriqni oson bajaradilar.

5. **Nusxa ko'chirish usuli.** Bu metod harf shaklini to'g'ri tasavvur qila olmaydigan, yozayotganda daftar chiziqlaridan pastga yoki yuqoriga chiqib ketadigan o'quvchilar uchun qo'llaniladi.

6. **Tasavvur orqali yozish usuli.** O'qituvchi doskaga yozib ko'rsatgan harf yoki uning bog'lanishlarini o'quvchilarga ruchkani havoda harakatlantirib ko'rsatadi va bu orqali o'quvchida harf haqida tasavvur hosil qilinadi.

7. **Ritmik usul(sanoq-ohang).** Bu usul o'qituvchi sanog'I ostida harf va uning elementlarini yozish demakdir. Bu usuldan savod o'rgatish davrida va 1-sinfning ikkinchi yarim yilligida foydalanish mumkin

8. **Harf shakllarini tahlil qilish usuli.** Harflarni elementlarga ajratib tahlil qilish har bir harfning necha elementdan tuzilganligini, qanday shaklda ekanligini, bu elementlar boshqa harflar bilan bog'lanishida qanday ko'rinishga ega bo'lishini o'quvchilar tasavvur etadilar.

9. **Yozuv malakasini ongli o'zlashtirish usuli.** Chiroyli yozuv qoidalarini yaxshi bilish yozuv malakasining shakllanishiga yaqindan yordam beradi.

Chiroyli yozuv qoidalarini qisqa va tushunarli qilib bayon etish lozim, shundagina o'quvchilar uni to'liq o'zlashtirishlari va amalda qo'llashlari mumkin. Masalan, birinchi sinfda dastlab to'g'ri o'tirish, ruchkani to'g'ri ushlash, daftarni to'g'ri holatda qo'yish kabi talablar, shundan keyin so'zlarda harflarning balandligini va qiyaligini bir xilda saqlash, so'zlarda harf unsurlari va harflarning oralig'ini bir xil uzoqlikda chamalab yozish qoidalari o'rgatiladi.

10. **Qo'l harakatini mashq qildirish usuli.** Husnixat qoidalari asosida yozishni mashq qilishga 6-8 daqiqa ajratiladi, bu vaqt oralig'ida o'quvchilarning qo'li va muskullari charchashi mumkin, charchoq alomatlari ko'zga tashlansa, darhol qo'l harakatiga doir jismoniy mashqlar tashkil etiladi.



11. Xatolar ustida ishlash usuli. Bu usulni qo'llashdan maqsad har bir o'quvchini o'z xatosini mustaqil topa olishga va uni tuzatishga o'rgatishdir. O'quvchilarning o'z yozuvlaridagi harflarning to'g'ri yoki noto'g'ri shakllantirilganligini, qiyaligini, baland yoki past yozilganligini tekshirib chiqish topshiriladi.

12. Qo'l uzmasdan yozish usuli. Qo'l uzmasdan yozish yozuv malakalarini tez va erta egallashga zamin yaratadi. O'qituvchi o'quvchilarga harflarni yoza boshlaganlarida harflarni yozish jarayonida ruchkaning uchini qog'ozdan uzmagan holda yozishlarini eslatib turishi lozim.

Savod o'rgatish darslarida o'quvchilarni yozishga o'rgatish vaqtida o'qituvchining ko'magi muhim rol o'ynaydi. Bu jarayon anacha murakkab bo'lib, pedagogdan yetarlicha sabr va mahorat talab qiladi. O'qituvchi o'quvchilar qiladigan xatolarga ko'z yumishi, har qanday vaziyatda o'quvchilarga yaxshi muomalada bo'lishi, doimo rag'batlantirish orqali motivatsiyasini oshirib borishi, ular muammolarga duch kelganda turli xil usullar orqali hal qila olishi zarur. Ba'zi o'quvchilar harflarni yozayotganda turli xil muammolarga duch kelishadi. Masalan, bolalarning dars mashg'ulotlariga psixologik tomondan to'la tayyor emasligi, qo'l matorikasining yetarlicha rivojlanmaganligi, qiziqishning yetishmasligi, harflarni shakllantirish va bog'lash qiyinligi kabilar. Muammolar bo'lgan joyda, albatta uning yechimlari ham bo'ladi. Avvalo, qo'l matorikasini rivojlantirish uchun o'quvchilarga rasmlar chizdirish, plastilindan turli xil narsalar yasash, qog'oz kesish kabi mashqlar bajarish yetarlicha samara beradi va ularning qiziqishini ham oshiradi. Bundan tashqari dars mashg'ulotlari o'yin bilan birgalikda olib borilsa, o'quvchilar zerikmaydi.

Dars mashg'ulotlarida yozuvga o'rgatishning turli usul va metodlaridan foydalanish yuqori natijaga erishishda muhimdir. Misol uchun, namunaga qarab ko'chirish usuli o'quvchilar yo'l qo'yadigan xatolarni tuzatishga yordam beradi. Bugungi kunda chiziqli usul keng qo'llanilmoqda. Sababi yozishning bu usuli harflarni to'g'ri joylashtirish ko'nikmasini shakllantiradi. Bundan tashqari taqqoslash usuli ham yaxshi samara beradi. Bunda o'quvchilarning dastlabki yozuvi bilan bir qancha vaqt o'tgandan keying yozuvlarini o'zlariga taqqoslashni vazifa qilib berish kerak. Ular o'z



yozuvlari yaxshi tomonga o'zgarganligini ko'rib motivatsiya oladi va qiziqishi ortadi. Ushbu usullar o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos ravishda tanlanganida, ular harflar va so'zlarni to'g'ri yozishni, mazmunli gaplar tuzishni osonroq o'zlashtiradilar. Xususan, didaktik o'yinlar, vizual materiallardan foydalanish, harflarni shakllantirish texnikalari va interfaol mashg'ulotlar dars samaradorligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarning imkoniyat va qiziqishlarini hisobga olgan holda, savod o'rgatish darslarida yozuvga o'rgatish usullaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Yozuvga o'rgatish jarayoni nafaqat o'quvchilarning imlo va husnixat ko'nikmalarini shakllantiradi, balki ularning mantiqiy fikrlash, nutq rivoji va ijodiy ifoda qobiliyatlarini ham oshiradi. Yozuvga o'rgatish usullarining o'rinli qo'llanilishi savod o'rgatish jarayonining samaradorligini ta'minlaydi, o'quvchilarning ishonchini oshiradi va ularning mustaqil yozma nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aydarova U.B., Yuldasheva D.Sh. Onat tili. Umumiy o'rtta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. I qism. Toshkent: "Novda Edutainment", 2024-112 b.
2. Aydarova U. Onat tili. Umumiy o'rtta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. II qism. Toshkent: "Novda Edutainment", 2024-88 b.
3. O'.Q. Tolipov va M. Usmonboyeva .Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari – Toshkent. Fan. 2006.-260 bet
4. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharafjon Sariyev "Ona tili o'qitish metodkasi". T.: "Nosir" 2009.
5. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun. Ona tili va o'qish savodxonligi. 2-qism. darslik 2-sinf uchun. T.: 2021-120 bet
6. A.Musurmanova va boshqalar. Umumiy pedagogika – Toshkent. Innovatsiya – Ziyo.2020.-194-bet